

**Salohiyatli kadrlar rezerviga
tanlab olinganlar:**

Yaxshi natija ko'rsatgan hokim yordamchilari:
65 nafar

Yoshlar yetakchilari:
40 nafar

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

53 (16506)
2022-yil, 6-avgust
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Kun mavzusi 383 nafar yoshga
3-bet vaucherlar taqdim etildi

Mahallada yoshlar yetakchisi Chustda zamonaviy
4-bet sport maydonlari

Ogoh bo'ling Yangi asrning
6-bet eski muammosi



SHAXMAT: YANGI RENESSANS DAVRI BOSHLANDI

Prezidentimizning 2022-yil 5-avgustdagi "Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, endilikda nufuzli shaxmat musobaqalari g'oliblari va ularning ustozlari ham munosib taqdirlanadi.

batafsil
2-betda













SHAXMAT: YANGI RENESSANS DAVRI BOSHLANDI

Manbalarda shaxmatni o'ylab topishganiga besh ming yil bo'lgan, deb yoziladi. Shuncha yildan beri 64 katakda 32 dona bilan jang qilinadi. U kishini mushohadaga, jo'shqin hislar girdobiga, kurash maydoniga yetaklaydi. Shaxmat xotirani zaiflashishdan saqlaydi, ishchanlik qobiliyatini kuchaytiradi, bir so'z bilan aytganda, yoshlarning

komil inson bo'lib voyaga yetishida uning o'rnini benihoya yuqori.

Prezidentimizning 2022-yil 5-avgustdagi "Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, endilikda nufuzli shaxmat musobaqalari g'oliblari va ularning ustozlari ham munosib taqdirlanadi.

Prezidentimizning "Shaxmatni yanada ommalashtirish va rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan xalqaro turnirlarda g'olib bo'lgan shaxmatchi va trenerlarga beriladigan bir martalik pul mukofoti miqdori:

Musobaqalar va tadbirlar	Medal	Sportchiga	Trenerga
1. Butunjahon shaxmat olimpiadasi (2 yilda 1 marta)	 Oltin  Kumush  Bronza	BHMning 2000 baravari 600 mln. so'm BHMning 1000 baravari 300 mln. so'm BHMning 500 baravari 150 mln. so'm	 BHMning 1000 baravari 300 mln. so'm BHMning 500 baravari 150 mln. so'm BHMning 250 baravari 75 mln. so'm
2. Xalqaro shaxmat federatsiyasi tasnifiga ko'ra jahon musobaqalari (12 ta)	 Oltin  Kumush  Bronza	BHMning 300 baravari 90 mln. so'm BHMning 150 baravari 45 mln. so'm BHMning 75 baravari 22,5 mln. so'm	 BHMning 150 baravari 45 mln. so'm BHMning 75 baravari 22,5 mln. so'm BHMning 37,5 baravari 11 mln. 250 ming so'm
3. Xalqaro shaxmat federatsiyasi tasnifiga ko'ra Osiyo musobaqalari (11 ta)	 Oltin  Kumush  Bronza	BHMning 70 baravari 21 mln. so'm BHMning 35 baravari 11,5 mln. so'm BHMning 17,5 baravari 5 mln. 250 ming so'm	 BHMning 35 baravari 11,5 mln. so'm BHMning 17,5 baravari 5 mln. 250 ming so'm BHMning 8,75 baravari 2 mln. 625 ming so'm
Xalqaro grossmeyster bo'lganda		BHMning 100 baravari	30 mln. so'm

XALQARO SHAXMAT MAKTABI TASHKIL QILINADI

Prezident qaroriga muvofiq, Navoiy viloyatida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan maktabdan tashqari davlat sport-ta'lim muassasasi hisoblangan Xalqaro shaxmat maktabi tashkil qilindi. Har yili o'tkazib kelinayotgan **Prezident sovrini uchun xalqaro shaxmat turnirining final bosqichi 2023-yildan Xalqaro shaxmat maktabida o'tkaziladi.**

Shuningdek, 2022/2023-o'quv yilidan umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, professional va OTM hamda hududlardagi Yoshlar markazlarida shaxmat to'garaklari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Har yili Xalqaro shaxmat maktabida jahonning mashhur xalqaro grossmeysterlari ishtirokida yosh shaxmatchilar uchun trening va mahorat darslarini o'z ichiga olgan mavsumiy oromgohlar tashkil etiladi.

50 000 DOLLARLIK XALQARO TURNIR

– Shaxmat shunchaki o'yin emas, **degan edi kubalik grossmeyster Raul Kapablanka.** – Bu vaqt o'tkazishning ma'lum darajada badiiyligi va ilmiylikka asoslangan intellektual foydali usulidir. Jismoniy mukammallik uchun sport qanchalik muhim bo'lsa, aqliy salohiyat uchun shaxmat shunchalik muhimdir. U insonga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni rivojlantirish va aqlni mashq qilishning qiziqarli hamda qulay yo'lidir.

Shaxmat bo'yicha 2023-yildan boshlab har yili tizimli ravishda:

- yoshlar o'rtasida barcha hududlarda **"Rokirovka" turniri;**
- keksa avlod vakillari o'rtasida **"Nuroniylar" kubogi;**
- nogironligi bo'lgan shaxmatchilar o'rtasida **"Cheksiz imkon" turniri;**
- 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan 50 000 AQSh dollari miqdorida mukofot fondiga ega **"Women's Chess Championship" xalqaro turniri;**
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'st-

ligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti va Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo mamlakatlar shaxmatchilari o'rtasida an'anaviy **"Uzbekistan Chess Open"** xalqaro turniri o'tkaziladi.

Yurtimizda bolalar shaxmatini qo'llab-quvvatlash borasida katta tajriba to'plangan. Bu o'zining yuksak samaralarini berib, bolalar va o'smirlar o'rtasidagi xalqaro musobaqalar, jahon va Osiyo chempionatlarida, shaxmat olimpiadalarda yoshlar munosib qatnashyapti. Biroq ular ulg'ayib, kattalar orasiga

kirgandan keyin negadir ko'rinmay qolar edi. Kattalar o'rtasida ham jahon chempionatlari va Olimpiadalarda birinchi o'rinni egallashi uchun e'tibor va sharoit yanada yaxshilangani, erkaklar va ayollar o'rtasidagi mamlakat chempionatlarini muntazam o'tkazish yo'lga qo'yilib, g'oliblarni rag'batlantirish tizimi joriy etilgani bu masalaga ijobiy yechim bo'ladi deb umid qilamiz.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



OCHIQLIKNI TA'MINLAMAGAN MAS'UL SHAXSLAR JAVOBGARLIKKA TORTILADI



Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutgan qonun kuchga kirdi.

Amaldagi qonunchilikda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzgan aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'lishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, mazkur javobgarlik aynan qaysi huquqiy norma asosida tartibga solinishi belgilanmagan edi.

Davlatimiz rahbarining "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash va qonunchilikdagi mazkur bo'shliqni bartaraf etish maqsadida Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ayrim qonun hujjatlarini o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu qonun joriy yil 3-avgust kuni Prezidentimiz tomonidan imzolandi.

Qonunga muvofiq, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks 215-7-moddasi bilan to'ldirilib, unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik belgilandi.

Shuningdek, kodeks 245-10-moddasi bilan to'ldirilib, unga ko'ra, mazkur toifadagi ishlar yuzasidan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan bayonnoma rasmiylashtirilib, ko'rib chi-

qish uchun sudga yuborish tartibi joriy etilmoqda.

Endilikda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilikni buzish, jumladan, ochiq ma'lumot sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar ro'yxatiga kiritilgan ma'lumotlarni e'lon qilmaslik yoki to'liq e'lon qilmaslik, e'lon qilish muddati va tartibini buzish yoki ma'lumotlarni noto'g'ri ko'rsatish ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ma'lumot o'rnida: Ochiq ma'lumot sifatida joylashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy ahamiyatdagi ma'lumotlar ro'yxati Davlatimiz rahbarining yuqorida nomi keltirilgan farmonida ko'rsatilgan.

Aytib o'tish kerakki, farmonda davlat organlari va tashkilotlariga 35 toifadagi axborotlarni joylashtirib borish vazifasi yuklatilgan.

Axborotlarning 14 tasi respublikadagi barcha davlat organlari va tashkilotlari, 1 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari hamda 20 tasi respublika darajasidagi aniq belgilangan 12 vazirlik yoki idoralar tomonidan kiritib boriladi.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning to'ldirilayotgan yangi moddasiga muvofiq, ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni belgilangan axborot resurslarida joylashtirib borish majburiyatiga rioya etilmaganda javobgarlik choralari belgilandi.

Xususan, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda jarima qo'llaniladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilganda, mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha miqdorda jarima qo'llaniladi.

Norgul ABDURAIMOVA,
O'ZA muxbiri

“

**OCHIQ MA'LUMOT
SIFATIDA
JOYLASHTIRILISHI KERAK
BO'LGAN IJTIMOIY
AHAMIYATDAGI
MA'LUMOTLAR
RO'YXATI DAVLATIMIZ
RAHBARINING
YUQORIDA NOMI
KELTIRILGAN FARMONIDA
KO'RSATILGAN.**

383

NAFAR YOSHGA VAUCHERLAR TAQDIM ETILDI



Qoraqalpog'iston Respublikasida "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarning avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida o'qish xarajatlarini va safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati badalini qoplash bo'yicha tadbir tashkil etildi.

Unda O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi, agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi, Nukus shahar hokimligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'mondonligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Mudofaa ishlari boshqarmasi, Nukus shahridagi 64 mahalladan "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlar va ularning ota-onalari hamda mahallalardagi yoshlar yetakchilari qatnashdi.

Tadbiri Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev onlayn videomuloqot orqali ochib berdi. So'ng yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va g'amxo'rliklar, xususan, Qurolli kuchlarimizda yoshlarga yaratilgan keng imtiyozlar to'g'risida ma'lumot berildi.

Shu kuni "Yoshlar daftari"ga kiritilgan nukusliklar uchun ajratilgan 1 milliard

739 million 626 ming 800 so'mlik vaucher Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarma boshlig'i Polat Maxsetbayevga tantanali ravishda topshirildi.

Ijtimoiy himoyaga muhtoj 243 nafar yoshlarning safarbarlik chaqiruv rezervi xizmati badalini qoplash uchun 1 milliard 571 million 626 ming 800 so'm, 140 nafar yoshlarning avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash kurslarida o'qish xarajatlarini qoplab berish uchun 168 million so'm subsidiyalar ajratish bo'yicha jami 383 nafar yoshga vaucherlar taqdim etildi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilar Shimoli-g'arbiy harbiy okrug safarbarlik chaqiruv rezervi batalyoni, Nukus garnizoni Ma'naviyat va ma'rifat markazidagi harbiy okrug tarixidan so'zlovchi muzey hamda Avtomototransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o'quv tashkiloti bilan yaqindan tanishdi.

Paraxat QAZAXBAYEV,

Yoshlar ishlari agentligining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi axborot va media xizmati bo'yicha mutaxassis



ENG MUHIMI - ISHONCH



Sohibjon OMONOV,
Jizzax shahridagi "Jizzaxlik" ma-
hallasi yoshlar yetakchisi



Psixologiyani yaxshi bilish yoshlarga yetakchilik qilishda ayni muddao bo'ladi. Har holda men shunday deb hisoblayman. 2015-yili Jizzax davlat pedagogika institutining psixologiya yo'nalishini tamomlab, Jizzax shahridagi 15-maktabda psixolog bo'lib ishladim. Shu orada respublika psixologlar tanlovida 1-o'rinni oldim.



Bu g'alabam meni viloyatdagi "Temurbeklar maktabi"da direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari bo'lib ish boshlashimga sabab bo'ldi. Keyingi faoliyatimni 2019-yildan Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasida davom ettirdim. Barcha sohada orttirgan tajribalarim bugun mahallamizda yoshlarga yordam berishda qo'l kelmoqda.

Xatlov jarayonida birinchi galdan mahalladagi hunari bor yigit-qizlar ro'yxatini shakllantirdim. Hunarmandlar o'z biznesini yo'lga qo'ysa, shu bilan birga, yoshlarga o'z hunarini ham o'rgatsa deb o'yladim. Har holda hunari bor xor bo'lmas, deb bejiz aytilmagan.

Ishni mahallamizdagi tikuvchi qiz **Mamlakat To'qinovaga o'z biznesini boshlashi uchun zarur bo'lgan zamonaviy tikuv mashinasini subsidiya asosida ajratishdan boshladim.** Hozir Mamlakat tikuvchilikdan yaxshigina daromad olib, mahallaning yigirmadan ortiq qizlariga tikuvchilik sirlarini o'rgatmoqda.

Dehqonchilik bilan shug'ullanish istagini bildirgan **Azamat Sa'dulayevga hovlisidagi issiqxonasida sharoitni yaxshilash uchun 33 million so'm miqdorida imtiyozli kredit ajratdik.** Uning aytishicha, hozirgi kunda daromadi avvalgiga qaraganda 3-4 barobarga ko'paygan. Yana shunday dehqonchilik qilish niyatidagi 15 nafar yoshlarga 10 sotixdan 10 yil muddatga hech qanday to'lovsiz yer ajratib berdik. Hozir ularning har biri o'zlariga uchun ajratilgan yerdan daromad olib, ikkinchi ekinni ekish taraddudida.

Bundan tashqari, mahalladagi yoshlarning salomatligini tiklash uchun ham mablag' ajratib kelmoqdamiz. Yoshligida kuyib jarohat olgan **Durdona Toshpo'latova salomatligini tiklash uchun operatsiya xarajatlarini qoplab berish maqsadida "Yoshlar daf-tari"ga kiritib, 7 million so'm ajratdik.** Kontrakt asosida ta'lim olayotgan bir nechta yoshlarimizning to'lov shartnoma pulining bir qismini to'lab berdik.

Mahallamiz yoshlari bilan aka-uka, opa-ukadek kelishib ketganimiz uchun ular ham o'z dardini, orzu-istaklarini aytishadi. Shu tariqa yoshlar muammolari asta-sekin hal etilyapti.

“

DEHQONCHILIK QILISH NIYATIDAGI 15 NAFAR YOSHLARGA 10 SOTIXDAN 10 YIL MUDDATGA HECH QANDAY TO'LOVSIZ YER AJRATIB BERDIK.



CHUSTDA ZAMONAVIY SPORT MAYDONLARI

"Besh tashabbus olimpiada"si doirasida o'tkazilayotgan sport musobaqalari yoshlarni sportga jalb etish, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilishda muhim rol o'ynamoqda. Bu musobaqalarda chustlik yoshlar ham faol ishtirok etib, 7 ta oltin, 9 ta kumush, 6 ta bronza medali qo'lga kiritdi. Umumjamoa hisobida viloyatimizda 2-o'rinni egalladi.

Quvonarlisi, mazkur sport musobaqalarining respublika bosqichida ishtirok etib, g'oliblikni qo'lga kiritgan "Bibiona", "Birlik", "Toymas", "Mashhad" mahallalarida zamonaviy sport maydonlari qurilishi boshlanish arafasida.

Yana bir yangilik - viloyat hokimining tashabbusi bilan mahallalardagi yoshlar sport bilan doimiy shug'ullanishi uchun har bir shahar va tumanga 500 million so'mlik sport inventarlari taqdim qilinib, ular eng olis qishloq mahallalarigacha yetib bordi. Chekka qishloq yoshlarining bo'sh vaqtlarini sport bilan o'tkazishini ta'minlash uchun fitnes, tatami, vorkout, stritbol, boks, stol tennis anjomlari, futbol, voleybol, basketbol to'plari taqdim qilindi. Shular qatori bizning mahalla yoshlariga ham ushbu sport anjomlari tantanali ravishda topshirildi.

Bu mening yoshlar bilan ishlashimda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Quvonarlisi, "Besh tashabbus olimpiadasi" yilda ikki marta o'tkaziladigan bo'ldi. Bu sportsevar yoshlar sonini yanada oshirib, yosh chempionlar chiqishiga zamin yaratadi.

Otabek QOBLOV,
Chust tumaniidagi "Tinchlik" mahallasi yosh-
lar yetakchisi



QO'NG'IROTLIK O'QUVCHILAR QASHQADARYODA:



O'Imas BAROTOV,
OZA muxbiri

MAROQLI O'TMOQDA

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ng'irot tumanining 200 nafar maktab o'quvchisi Qashqadaryo viloyati Shahrizabz tumanidagi "Lochin" yozgi sog'lomlashtirish oromgohida maroqli dam olmoqda.

So'lim tabiatli xushmanzara go'sha qoraqalpog'istonlik bolalarga juda manzur bo'lmoqda.

– Bu yerda vaqtimizni xush o'tkazmoqdamiz, – **deydi 13 yoshli Jadira Islamova.** – Ayniqsa, men ga oromgohdagi dunyoning yetti mo'jizasi hisoblangan tarixiy binolar maketlari juda yoqdi. Xuddi o'sha joylarga borgandek bo'ldim. Ko'plab do'stlar orttiridim. Badiiy kechalarda qatnashdim. Quvonchlarim cheksiz.

Oromgohda "Milliy raqslar", "Milliy ashulalar" tanlovi va "Eng gozal ijro" tanlovlari tashkil qilingan. Bundan tashqari, oromgohda kechki umumiy yig'inda "Eng ahil jamoa", "Eng toza yotoqxona", "Eng mas'uliyatli jamoa navbatchisi", "Eng mas'uliyatli yetakchi", "Eng chaqqon tarbiyachi" nominatsiyalari bo'yicha tanlovning kun

g'oliblari e'lon qilib borilmoqda. Jamoalar ishtirokida o'tkazilayotgan "Quvnoqlar va zukkolar", "Keling, bir kulishaylik!", "Modalar tanlovi", "Balli yigitlar", "Balli qizlar", "Jajji malikalalar", "Oromgoh shahzodasi", "Oromgoh malikasi" tanlovlarida bolajonlar faol ishtirok etmoqda.

Prezidentimiz joriy yil 23-24-fevral kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasiga tashrifi chog'ida Orolbo'yini birgalikda rivojlantirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi tumanlari muayyan viloyatlar, jumladan, Qo'ng'irot tumani Qashqadaryo viloyatiga birlashtirilgan edi. Shunga binoan, tegishli "yo'l xaritasi" hamda Xalq deputatlari viloyat kengashi va viloyat hokimining qarorlariga asosan, qo'ng'irotlik nuroniylar va yoshlarning yozgi mavsumda maroqli dam olishi uchun viloyat mahalliy byudjetining 2022-yil boshidagi erkin qoldiq mablag'lari hisobidan 740 million so'm

ajratilishi belgilandi. Bundan oldin esa viloyat hokimining qaroriga muvofiq, Qo'ng'irot tumanidagi madaniyat va istirohat bog'ini rekonstruksiya qilish bilan bog'liq xarajatlariga viloyat mahalliy byudjetining 2022-yil xazina jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1 milliard so'm yo'naltirishi qayd etilgan edi.

Viloyat hokimligining axborot xizmati joriy yil aprel oyida e'lon qilgan ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyati tomonidan Qo'ng'irot tumanida bir qator istiqbolli loyihalarni amalga oshirish maqsad qilingan. Masalan, Qo'ng'irot tumani Ravshan ovul fuqarolar yig'ini hududida

zamonaviy ko'rinishdagi 150 o'rinni maktabgacha ta'lim muassasasini qurish rejalashtirildi. Shuningdek, "Beshkent Agroklastar" MChJ tomonidan Qo'ng'irot tumanidagi 500 ta aholi xonadonida 2500 bosh sog'in sigirdan olingan sutni kooperatsiya asosida xarid qilib, qayta ishlash hamda ozuqabop ekinlar yetishtirish uchun 1000 gektar yer maydonini o'zlashtirish mo'ljallangan. 100 nafar urologiya sohasidagi bemorning holatini nazoratga olib, Qashqadaryo viloyatidagi urologiya markazi mutaxassislari tomonidan bepul tarzda jarrohlik amaliyoti amalga oshirilishi belgilangan.



Besh tashabbus olimpiadasi

RESPUBLIKADA TENGSIZ EKANMAN!

"Besh tashabbus olimpiadasi" biz, yoshlar uchun ajayib loyiha bo'ldi. Bunda har qanday yosh qiziqishidan kelib chiqib o'z mahoratini sinab ko'rishi mumkin. Men ham shahka musobaqasida mahoratimni sinovdan o'tkazdim. Natijalar kutganimdan ham zo'r bo'ldi.

Musobaqaning mahalla, sektor boshqichlarida unchalik qiynalmadim, shahar bosqichida eng ilg'or yoshlar bilan bellashgan bo'lsam, viloyat bosqichida undan-da kuchli shashkachilar qarshiligiga duch keldim. Biroq o'zimga, bilim va tajribamga ishongan holda respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdim.

Jizzax viloyati mezbonlik qilgan finalda esa diyorimizning eng kuchli, iqtidorli sportchilari jam bo'ldi va ular qatorida

men ham borligim qalbmida g'urur, o'zimga bo'lgan ishonch tuyg'usini oshirdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari va Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yoshlarga berilayotgan e'tiborning samarasini shu yerda turib o'zimdagi his qildim.

Qizg'in va bahsli musobaqaning yakuniy natijalariga ko'ra, respublikada tengsiz – g'olib bo'ldim. O'z mahallamga birinchi o'rin bilan qaytib, do'st-u qarindoshlarim oldida hurmatim oshdi. Quvonarlisi, bu g'alaba sabab 30-iyun – Yoshlar kunida Yangi O'zbekiston bog'ida Prezidentimiz bilan uchrashganim hammasidan zo'r sovg'a bo'ldi.

Oybek BOZOROV,

Navoiy shahridagi "Ishonch" mahallasi fuqarosi



YANGI ASRNING

Erk – insonlar, jamiki jonivorlar uchun eng qimmatli ne'mat. Hatto eng sayroqi, xush-ovoz qush ham chiroyli qafasda saqlansa, bora-bora bu qobiliyatini yo'qotar ekan. Tabiatning eng oliy yaratig'i bo'lgan inson uchun esa bu haqiqiy fojiga aylanishi hech gap emas.

Biroq bugungi axborot asriga kelib insonni erkidan, ozodligidan judo qilishning bir qancha ko'rinishlari paydo bo'la boshladi. Ruhiy, jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlik shaklida amalga oshiriladigan bu jinoyatlar uchun qattiq va ayovsiz jazo choralarini belgilangan bo'lishiga qaramay, hali hanuz uning asosiy ko'rinishi – odam savdosi yangi asrning eski muammosi holicha qolib, o'z yechimini kutmoqda.

MILLIY BAYRAM SIFATIDA

Tarixi miloddan avvalgi V-IV asrlarga borib taqaluvchi, Qadimgi Rim va Yunonistonda yuksak darajada rivojlangan quldorlik jamiyati AQShda 16-prezident Avraam Linkoln tomonidan 1863-yilda qullarning ozod qilinishi haqidagi hujjatning imzolanishidan so'ng rasman tugatilgan. Va shu kun – 19-iyun bir necha yillardan buyon milliy ozodlik kuni sifatida nishonlab kelinmoqda.

Aslida inson onasidan ozod bo'lib tug'iladi, shoir Erkin Vohidov dostonlarining birida "Tug'ilgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol", deb ta'kidlaganidek, erkka erishishni bayram qilish emas, erk bo'g'ilishi, ozodlikning cheklanishiga qarshi kurashish zarur!

QONUN NIMA DEYDI?

"Odam savdosi, ya'ni odamni olish-sotish yo'xud odamni undan foydalanish maqsadida yotlash, tashish, topshirish, yashirish yoki qabul qilish uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi". O'zbekiston Respublikasining "Odam savdosiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida keltirilgan ushbu bandga muvofiq, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxslarga muntazam ravishda jazo choralarini va axloq tuzatish ishlari qo'llanilmoqda.

Dunyo hamjamiyatida BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash agentligi inson savdosi bo'yicha global miqyosda tadqiqot olib borishda o'z o'rniga ega. Ammo jazoning muqarrarligiga qaramay, nafs yo'lida hech narsadan qaytmaydigan kimsalar har doim bo'lgan. Yurtdoshlari – mahalladoshi bo'ladimi yoki qarindoshi, ular uchun bu ahamiyatsiz. Kelishilgan miqdordagi pulni oladi va ularning taqdiri qanday kechishi haqida boshqa o'ylamaydi!

“
HECH QACHON TELEFON
RAQAMINGIZ, MANZILINGIZ KABI
SHAXSIY MA'LUMOTLARNI
ONLAYN ULASHMANG.

ESKI MUAMMOSI

Ziyoda RAHIMBOYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri



QURBONLARNING KO'PI YOSHLAR!

Hayotiy tajribasi kamligi, oson pul topishga intilishi kuchliligi yoki shunchaki o'ta ishonuvchanligi ortidan begona yurtlarda xarob bo'layotgan yoshlar haqida achinarli hikoyalarga guvoh bo'lib qolamiz.

BMT Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurash agentligining 2020-yilgi Odam savdosiga qarshi global hisobotidagi statistikalariga ko'ra, 2016-2019-yillarda 135 mamlakatda 48 478 qurbon aniqlangan. Eng achinarlisi, qurbonlarning ko'pchiligi o'z huquqlarini bilmagan va oqibatda oson aldanib, ayrimlar uchun "o'lja"ga aylanib qolgan yoshlardir!

NIMA QILISH KERAK?

Ayni davrni bu jinoyatlarining eshiklari ochuvchi asosiy kalit – internet tarmog'i ekan – hech kimga sir emas. Internetdan eng ko'p foydalanuvchilar 15-30 yosh oralig'idagi yigit-qizlar ekanini hisobga olsak, ayrim tavsiya va ehtiyot choralarini ko'rib qo'yish zarur qilmaydi:

1. Shaxsiy ma'lumotlaringiz. Ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlaringiz barcha uchun ochiq bo'lsa, fotosuratlaringiz, postlaringiz va shu kabi boshqa ma'lumotlarni hamma

ko'rishi mumkin. "Savdogarlar" ushbu ma'lumotlardan jabrlanuvchilar bilan bog'lanish va yollash uchun foydalanishlari ehtimoli yuqori.

2. Ma'lumotlarni ulashmang. Shuni esdan chiqarmang, siz internetga joylashtirgan hamma narsa – fotosuratlar, matnlar endilikda jamoat mulki. Siz endi uning qanday ko'rilishi yoki ulashishlarini to'liq nazorat qila olmaysiz. Bundan odam savdosi bilan shug'ullanuvchilar jabrlanuvchilarni "shantaj", aloqa qilish yoki boshqa yo'l bilan kuzatishda yordam berish uchun odamlarning fotosuratlarini va shaxsiy ma'lumotlaridan "unumli" foydalanishadi. Hech qachon telefon raqamingiz, manzilingiz kabi shaxsiy ma'lumotlarni onlayn ulashmang.

3. Reklama va ish e'lonlaridan ehtiyot bo'ling, ayniqsa, ular shubhali ko'rinayotgan bo'lsa. Jinoyatchilar ko'pincha onlayn ish e'lonlarida oddiy ish uchun yaxshi maosh yoki model bo'lish imkoniyatini va'da qilib, siz uchun qulay takliflardan foydalanadilar. Ular ko'pincha e'lonlarda kompaniya ma'lumotlari va taklif etilayotgan mehnat sharoitlari haqida to'liq yoki umuman ma'lumot berishmaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda sizni sababsiz bezovta qilayotgan yoki sizga yoqmaydigan tarzda gaplashayotgan odamni do'stlikdan chiqaring va bloklang. Facebook, Twitter, Instagram, Tik-Tok va Snapchatta akkauntlarni qanday cheklab qo'yishni o'rganib oling. Xabarlarni foto shaklida saqlab qo'ying. Ular keyinchalik huquqni muhofaza qilish organlari uchun foydali bo'lishi mumkin.

“WIKIOROMGOH”

Bo'stonliq tumanidagi Yoshlar oromgohida "WikiStipendiya" marafoni doirasida "WikiOromgoh" loyihasi bo'lib o'tyapti.

150 nafar ishtirokchilar jamlangan loyihada "wikiadministrator"lar tomonidan mahorat darslari, tanqil shaxslar bilan uchrashuvlar, maroqli dam va boshqa qiziqarli o'yinlar o'tkazilmoqda. Ushbu loyiha 7-avgustga qadar davom etadi.

Shahribonu RAHMATOVA



TEMIR, TEMUR, TIMUR

QAY BIRINING YOZILISHI TO'G'RIROQ?

Amir Temur deymiz va barcha manbalarda shunday yozilgan. Shu bilan birga, Temir ismi ham ko'p uchraydi. Umuman, Temur/Temir/Timur – turkiy xalqlarda eng ko'p tarqalgan ismlardan biri. Hozirgi o'zbek tilida kimyoviy modda, ma'danni temir deymiz. Toshtemir, Eshtemir, Bektemir kabi ismlarda "temir" shakli qat'iy o'rnashgan, ya'ni Toshtemur demaymiz. Keling, mulohaza uchun bu so'zning o'tmishiga bir nazar tashlab ko'raylik.

Xoh ma'dan, xoh atoqli ot ma'nosida bo'lsin, temir turklar tarixida muhim o'rin tutadi. Buni qarangki, ikki buyuk tarixiy shaxs: Chingizxon (Timujin) va Temur ham tug'ilishdan shu nom sohiblaridir. Temir – bu mustahkamlik, chidamlilik, kuch-qudrat, iroda ramzi, shuningdek, qadimgi turklar zehniyati, turmush tarzi, mafkuralarida markaziy o'rin tutgan bir unsurdur.

Xunlardan to ko'kturklargacha bo'lgan davrda Chin imperiyasi (hozirgi Xitoy) bilan baqamti yashagan qadimgi turklarning ajdodlari Xitoy madaniyati ta'sirida bo'lgan. Shu bois temir, kumush, oltin kabi ma'danlarning nomlari, mutaxassislariga ko'ra, o'rta chin (xitoy) tilidan qadimgi turk tiliga o'zlashgan. Qadimgi turklar tuprog'i – Qocho' (Gaochan), Turfan yerlarida yashagan turkiy qabilalar temir qazib olish, unga ishlov berishni yaxshi bilganlar. Bizningcha, qadimgi turklarning jangovar bir xalq bo'lishida ularning temirchilik hunarlari ham muhim rol o'ynagan. Deylik, qadimgi turklar temirni o'zlariga "bo'ysundirib", undan quro'l-yarog' yasashni bilmaganlarida, ehtimol, Ashina qavmi Turk xoqonligiga asos solmagan, turklar tarixda yirik davlatlar, imperiyalar qura olmagan bo'lardilar. Shu bois

tarix kitoblarida Temur otliq tarixiy shaxslar ko'p uchraydi.

Tilshunos olim O.Mudrakning yozishicha, "temir" so'zi etimologiyasi qadimgi chincha "temir narsa" ma'nosidagi "diēt-mwit" kalimasiga borib taqalib, uning turkchaga o'tgan eski xitoycha shakli "diērmwur"dir. Hozirgi xitoy tilida esa "temir" – "tiē" deb talaffuz etilar ekan.

TEMIR – BU MUSTAHKAMLIK, CHIDAMLILIK, KUCH- QUDRAT, IRODA RAMZI.

Eng qadimgi turkiy obidalarida ham "temir" ko'p uchraydigan so'zlardan biridir. Qizig' shundaki, VIII-X asrlarga oid Urxun-Enasoy, Turfan, Sharqiy Turkiston hududlarida topilgan yodgorliklarda bu so'z ko'proq "temir" shaklida yozilgan. "Drevnetyurkskiy slovar" lug'atida mazkur davrga oid qadimgi turkiy obidalaridan: "temir", "temir asaq", "temirchi", "temirlik", "temir qapig" kabi o'nlab so'zlar keltiriladi (DTS. Leningrad. "Nauka". 1969. 551-bet).

X asrdan keyingi adabiy yodgorliklarda esa ma'dan nomi ham, atoqli ot ham asosan "temur" shaklida qayd etilgan. Xususan, XI asrga oid "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otit-turk"da bu so'z – tēmyr shaklida uchraydi. Mahmud Koshg'ariy "Devon"da, shuningdek, "tēmyrchi", "tēmyrlyg", "tēmyrgān" kabi so'zlarni keltiradi va barchasida "tēmYr" shakli saqlangan. Rabg'uziy ham bu so'zni "temur" shaklida yozgan. Ergash Fozilovning "Starouzbekskiy yazyk. Xorezmiyskie pamyatniki XIV veka" lug'atida keltirilishicha, XIV asr Xorazm adabiy muhitida ham bu so'z "tēmyr" hamda "temyr" shakllarida qo'llan-

gan. Lug'atda "Nahjul-farodis" asaridan shunday misol keltiriladi: "natak kim tamurchinir koryki tamyrny yamanlarini ketaryr" ("Temirchining kuragi temirning yomonlarini kurab tashlaydi". E.Fazilov.SUYA. II.T.1971.378-bet).

Ovro'paliq missionerlar tomonidan XIII-XIV asrlarda tuzilgan, asosan qipchoq lahjasini o'zida aks ettirgan "Kodeks kumanikus" lug'atida bu so'z "temir" shaklida uchraydi. Umuman, qipchoq va sibir lahjalarida bu so'zning "temir"ga yaqin talaffuz etilishini ko'rish mumkin (tatar, boshqird: timer; qozoq, qoraqalpoq, no'g'ay: temir; tuva: demir; hakas: timar, yoqut: timir; chuvash timar; mo'g'ul: tēmer). Qarluq lahjasi, xususan, uyg'urcha: tumur, eski o'zbek adabiy tilida: temur; eski usmonli turkchasida: demur, ammo hozirgi Turkiya turkchasida: demir; ozarbojyoncha: dəmir; turkmancha: demir va hokazo.

Shuningdek, Temur ismini kirill yozuvida – "Timur" (lotinda: "Timur") shaklida yozish an'anasi ham bor. Temur nafaqat turkiylar ichida, balki dunyo bo'ylab keng tarqalgan bir ismdir. Shu bois "Timur" shaklini bu ismning "baynalmillalashgan" ko'rinishi, deyish mumkin.

Shu o'rinda Chingizxonning asl ismi – Temujin haqida ham ikki og'iz so'z: tarixdan ma'lumki, Yasugay Bahodir tatarlar boshchisi Temujin Uge ustidan qozonilgan g'alaba ramzi o'laraq o'sha paytda tug'ilgan o'g'liga shu ismni bergan. "Temujin" ismi ham "temir" ma'nosini bildiradi, deyiladi, ammo nega "temu-jin", ya'ni so'z oxiridagi "–jin" ("–chin") qanday ma'noga ega? Bizningcha, bu so'zning ikkinchi qismi ham xitoycha "metall" ma'nosidagi "jin" so'zidir.

Guvohi bo'ldikki, X asrdan to keyingi asrlargacha mintaqamizda, Sharqiy Turkistondan to Xorazmgacha bo'lgan yerlarda, biz eski o'zbek tili deb biladigan turkiy adabiy tilida ma'dan ma'nosida ham, atoqli ot ma'nosida ham "temur" shakli qo'llanilgan ekan. Shimoliy turk tillari guruhi, xususan, qipchoq, sibir lahjalarida esa ko'proq "temir" shakli saqlangan. Hozirgi o'zbek tilini qarluq, qipchoq, o'g'uz va boshqa turkiy lahjalarni o'zida birlashtirgan, ta'bir joiz bo'lsa, o'rta turk tili deyish mumkin. Shu bois tilimizda bu so'zning ikkala shakli ham mavjud va ikkisi ham bizga begona emas.



AZIM CHINOR

Bu galgi sayohatimiz Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani Qalqama hududida joylashgan Quruqsoy qishlog'iga bo'ldi. Bu manzilga bizni qishloqdagi 5 asrlik chinor yetakladi.


Azim chinor mahobatini atrofni egallab turgan soyasidan ham anglash mumkin. Soyaning qalinligidan ostiga quyosh nuri tushmaydi. Chinor ostida mo'jazgina loysuvoq supa qurilgan. Albatta, dam oluvchilar uchun.

Chinor tarixi bilan bog'liq rivoyatlarni quruqsoylik oqsoqollar shunday hikoya qiladi:

– Bu chinor besh asrdan ziyod tarixga ega, – deydi Hamro bobo Siddiqov. – Ota-bobolarimizdan yetib kelgan ma'lumotlarga ko'ra, bu kabi chinorlar Mirzo Ulug'bek davrida ekilgan. Uning ekilishidan ikkita maqsad ko'zlangan. Mirzo Ulug'bek astronomiya ilmiga qiziqqani bois ushbu chinorlarni yulduzlarning osmonda joylashgan holatiga qarab ekan va har gal kelganda yulduzlardagi o'zgarishlarni kuzatgan. Bundan tashqari, doim Quruqsoy tomonlarga oylab shikorga chiqqan va yo'ldda adashib ketmaslik uchun mana shunday ekilgan chinorlar belgi vazifasini o'tagan. Ayni paytda bu kabi chinorlardan Samarqanddan to bizni qishloqqacha 7 tup bor.

Bu rivoyatlar qanchalik haqiqatga yaqin yoki uzoq bizga noma'lum. Bu borada birorta yozma ma'lumotlarni ham kuzatmadik. Ammo bir narsa aniqki, qishloqning buloq suvlari oqib turadigan soy bo'yida barq urib turgan ushbu chinor qanchadan-qancha yo'lovchi-yu sayyohlarga xizmat qilgani, qanchadan-qancha tarixiy voqealarga guvoh bo'lgani tayin.

O'ZA




O'ZBEKCHA WIKIPEDIYADA MAQOLALAR SONI
163 100 TADAN OSHDI VA
UMUMIY REYTINGDA 55-O'RINGA KO'TARILDI

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”


Bu loyiha allaqachon sizga qadrdon bo'lib qolgandir-a?
Tengdoshlaringiz ijodi, erishgan yutuqlari manzur bo'layaptimi? Ehtimol, loyihamizning navbatdagi soni
sizga bag'ishlanar! Buning uchun ijod namunalaringizni yoshlar-ovozi@mail.ru manziliga yo'llang.

Yangiljon Saburova



Bugungi qahramonimiz Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti amaliy san'at va dizayn fakultetining me'moriy yodgorliklar bezagini ta'mirlash yo'nalishi talabasi **Yangiljon Saburova**.

Yosh naqqosh Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l shahrida tavallud topgan. U tasviriy va amaliy san'at bo'yicha xalqaro tanlovlarda faol ishtirok etib, diplom, kubok va medallarga sazovor bo'lgan. Shu jumladan, Moskva shahrida "Radost Planet" festivali va "ART VICTORY" tanlovida, Norvegiyaning Oslo shahrida "The Best Student", Qozog'iston Respublikasida "DREAM FEST", "Makon-Fest 2022" milliy san'at va an'analar festivalida, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining "Xalqaro tasviriy va amaliy san'at" festivalida "Eng yaxshi ijodkor talaba", "Milliy san'atimiz jonkuyari" nominatsiyalarini, "Grand Pri" unvonlarini, kubok va medallarni qo'lga kiritdi.



2022-yil 18-may kuni "Ushalayotgan orzularim" nomli ilk shaxsiy ko'rgazmasini o'tkazib, o'z orzularidan birini usheltirdi.

Yangiljon naqqoshlik bilan birga badiiy ijod bilan ham shug'ullandi. Shu vaqtgacha "Rangin xayollar", "Nur jilvasi", "Olam va ohang" nomli 3 ta she'riy to'plami nashrdan chiqqan. Shu kunlarda "Fasllar nafasi" nomli kitobi nashrga tayyorlanmoqda.

Uning asarlari insonni maftun etib, soatlab tomosha qilishga majbur etadi. "Buxoro, Jome masjid mehrobi", "Shahrisabz, Oq saroy" mayolikasi, "Tempan" Xiva mayolikasi, "Xattotlik", "Xiva Ko'hna Ark" naqshi, "Eshik", "Samarqand, Ulug'bek madrasasi" kakamayiz, "Natyurmort" keramika, "Anorlar" keramika, "Zamonaviy naqsh", "Shahrisabz, Oq saroy" keramika, "Buxoro, devoriy bezak", "Zangi ota mayolika" loyihasida milliyligimiz, asrlar oshib kelgan an'analarimiz aks etgan.

Loyiha muallifi

Shahribonu RAHMATOVA

YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
 O'zbekiston yoshlar ittifoqi
 Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
 O'zbekiston Respublikasi
 Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV

Musahhihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriki va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (71) 233-22-16, (71) 236-79-95.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi boshqaruvchisi, A-3 formatda chop etildi. Hajmi - 2 bosma tabloq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma @-855, Adadi - 10527. Bosilishga topshirish vaqti - 21.00. Topshirildi - 20.00.

Saytimga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6